

---

Murojaatlarni ijobiy hal etishga alohida e'tibor qaratilmoqda

*Joriy haftadagi sayyor qabul shahar hokimligida o'tkazildi. Unda Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov, sektor rahbarlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi shahar bo'limi mudiri Tavakkaljon Rahimov va hokim o'rinbosarlari ishtirok etishdi.*

*Qabul davomida o'ttiz nafardan ortiq fuqarolarning murojaatlari mas'ullar ishtirokida o'rganildi. O'n nafarga yaqin fuqarolarning murojaatlari ijobiy hal qilindi. Beshta murojaat yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berildi.*

*Kelib tushgan murojaatlarni o'rganish va natijasi bo'yicha mualliflarga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilot va bo'limlarga topshiriqlar berildi.*

*Qabul so'ngida murojaatlarni hal etilishi darajasi tanqidiy tahlil qilindi. Fuqarolarning murojaatlarini ijobiy hal etish yuzasidan shahar hokimligi tomonidan amaliy yordam ko'rsatish belgilandi. Shuningdek, kuz-qish mavsumiga puxta tayyorgarlik ko'rish, kommunal sohalardagi muammolarni tezkorlik bilan bartaraf etish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.*

2023-09-25 17:45:56